YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

Qodirova Shohista Asil qizi
Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati informatika o'qituvchisi
Farg'ona Davlat Universiteti
+998-93-647-00-18
E-mail: qodirova1058@mail.ru
https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6657751

Annotatsiya: Maqolada ulug' ajdodlarimizning hamda boy ilmiy merosi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning uchinchi renessans bunyodkorlari to'g'risida bildirgan fikrlari, birinchi va ikkinchi renessans davri yutuqlari va uchinchi renessans davriga qo'yilgan qadamning zarurati, ilm va ma'rifatning katta imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'z: birinchi, ikkinchi renessans davri, uchinchi renessans davri.

Jonajon diyorimiz O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi.

Har qanday jamiyatning iqboli va istiqboli yosh avlodga bo'lgan e'tiborga bog'liqligi ayon. Prezidentimiz faoliyati va qarashlarining muhim yo'nalishi ham shunga qaratilgani bejiz emas. Kelajakning bunyodkori, ertangi kunning hal qiluvchi kuchi — yoshlarga munosabat masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylangani rost.

Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat — barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim.

"Renessans" lug'aviy fransuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan

qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909-yilda "Musulmon Renessansi" nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII — VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX — XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi — XVI asr birinchi choragi.

Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda — Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me'morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg'or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo'lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog'imiz zarur.

Yoshlar borasidagi siyosat ta'limning uzluksizligigagina emas, balki uzluksiz tarbiyaga ham yo'naltirilgani e'tiborlidir. Birgina misol sifatida Prezident maktablarining, atoqli adiblar nomi bilan bog'langan ijod maktablarining ochilishini keltirish mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz. 2020 yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi» — deganida qat'iy ishonch va aniq rejalar borligini nazarda tutayotgani sir emas

edi. Aniq maqsadlar sari intilganda, shunga mos bo‘lgan intellektual, salohiyatli yoshlar va barkamol avlod zarur.

Prezidentimizning uch yil oldin yoshlarga ishonch bildirib aytgan ushbu so‘zlari hamon qulog‘imiz ostida jaranglaydi. «Xalq dengiz bo‘lsa, yoshlar uning to‘lqinidir».

Demak, lider ergashtiruvchi bo‘lishi kerak ekan, xo‘sh, ergashtirish nimaning badaliga bo‘ladi? Albatta, qiziqtirish, o‘zaro manfaat hosil qilish evaziga shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, nutq mahorati orqali ro‘yobga chiqadi. Shunday ekan, muammolar yechimi, masalalar bichimi ham notiqlik san’ati bilan. Ta’limning kaliti nutq bilan, tarbiyaning kaliti xulq bilan bo‘lgani kabi muloqotning ham ochqichi nutq, muomalaning tutqichi xulqdir.

Istiqlolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda “O’zbekiston — kelajagi buyuk davlat” shiori olg’a surildi. U amalda milliy g’oya vazifasini o’tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o’ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg’u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g’oya shaklan takomillashtirilganda “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” iborasi olg’a surildi. Unda urg’u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat’i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo’lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo’yildi. Milliy g’oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotimizga real ta’sir ko’rsatayotirmi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g’oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g’oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog’i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g’oyaning yangi ifodasi, deb e’lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g’oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda Uchinchi Renessans g’oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g’oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog’da o’tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog’lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi.

Renessans degan bilan u sodir bo’lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o’ylangan siyosat olib borilishi, xalqda ruhiy ko’tarilish, qat’iy irodali intilish yuz bermog’i zarur.

Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga yetkazish kerak. O’tmish renessanslari

davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyatlaridan, ilm-fani, san'ati va adabiyotlaridan birini, ilg'or ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo'nda, dabdabali jumlalarsiz yoritish zarur.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o'zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq.

Bugungi tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ayniqsa, g'oyalar kurashi keskin tus olgan paytda mazmundor mohiyatga ega nutq ham, mahoratli, fikri teran, so'zga chechan notiqlar ham suvdek, havodek zarur. Chunki asosli, hayotiy, samarali targ'ibot va tashviqotgina xalqni ishontiradi, ruhlantiradi, ulug' va qutlug' maqsadlar sari ilhomlantiradi. Aks holda, dushman undan ustomonlik bilan foydalanib omma ongini zaharlashi, turli oqimlar tomon og'dirishi, asosiy maqsaddan chalg'itishi, yo'ldan ozdirishi hech gap emas.

Ma'rifatparvar adib Fitratning «Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir», — degan so'zlari bejiz emas. Aqlan, ruhan va jismonan sog'lom avlod barkamol bo'lganidek, xulqiy va nutqiy madaniyatga ega bo'lgan inson komil inson sanaladi.

Yurtimizda iqtidorga, liderlik salohiyatiga ega yoshlar ko'pligi uchun ham mamlakatimizda uchinchi renessans davriga zamin mavjud. Erishilayotgan yutuqlarimiz ko'p, lekin ular hali yetarli emas. Yoshlarimiz zamonaviy bilim va taraqqiyot cho'qqilarini egallab, o'z ma'naviyati va tafakkuri bilan barchaga ibrat hamda namuna bo'lishi kerak. Buning uchun ular vatan ravnaqini o'z hayotining mazmuni deb bilishlari, yoshlik umrning beg'ubor, ulkan orzu-umidlar va imkoniyatlar davri ekanini teran his etishlari lozim.

Yurtimizda yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat va ma'rifat masalasi, milliy qadriyatlar va tarixni o'rganishga bo'lgan e'tibor doimiy kun tartibidan joy olishi shart. Zero, Prezidentimiz bugungi yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi haqida alohida to'xtalib o'tgani ham bejiz emas: "Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, oilaviy ajralishlar, buzg'unchi va radikal oqimlar ta'siriga tushish holatlari davom etayotgani, davlat rahbari sifatida shaxsan meni jiddiy tashvishga solmoqda".

Hindiston o'lkasining ozodligi, taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk davlat va jamoat arbobi Mahatma Gandiga "Globallashuv jarayoniga sizning munosabatingiz qanday?" degan savol bilan murojaat qilishganida u shunday javob qaytargan ekan: "Men tashqaridagi bo'rondan qo'rqib, derazamni yopib qo'ya olmayman, chunki menga toza havo kerak. Shu bilan birga, toza havo

kerak ekan deb derazamni katta ochib ham qo‘ya olmayman, chunki meni uyimni chang-to‘zon bosib ketishini xohlamayman”.

Chuqur mantiq va mushohadaga chorlovchi mazkur jumlalar mohiyatiga nazar tashlaylik. Mamlakatimiz erishgan bir qator yutuqlarga “soya soluvchi”, taraqqiyotimizga hasad bilan qaraydigan kuchlar yo‘q emas. Bu ularning globallashuv davrida g‘oyaviy ta’sir etuvchi usullardan foydalanishga urinayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Ular oriyat, or-andisha kabi insoniy fazilatlarga ma’naviy tahdid solish orqali axloqsizlik, behayolikni targ‘ib etishni maqsad qilgan.

Taassufki, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida milliy o‘zligimizga zid holatlarga guvoh bo‘lyapmiz. Masalan, ko‘cha-ko‘yda badaniga turli naqshlar, bezaklar chizib olgan yigit-qizlarni uchratish kamyob hodisa emas. Ularning orasida o‘zbek farzandlari ham borligi juda achinarli. Vaholanki, bu ma’naviy jihatdan ham, salomatlik nuqtai nazaridan ham faqat zarar keltiradi.

Bu kabi “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlari, vaqtinchalik huzur-halovat uchun insoniy fazilatlarni oyoqosti qilish oxir-oqibat tanazzulga olib borishi shubhasiz. Ma’naviyatimizga, iymon-e’tiqod, jismimizga zarar keltirishdan boshqa narsaga yaramaydigan bu kabi amallar, odatlardan o‘zimizni va eng asosiysi, farzandlarimizni asrashimiz kerak.

Jangarilikka, zo‘ravonlikka chorlovchi turli kompyuter o‘yinlari, behayolik, fahshni targ‘ib qiluvchi filmlar, ma’no-mazmunsiz qo‘shiqlar, chet el telekanallarining ayrim ko‘rsatuvlari, internet va undagi turli ijtimoiy tarmoqlar, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilgan tantanalar milliy o‘zligimiz bo‘lgan ma’naviy poydevorimizga rahna solmoqda.

Shunday ekan, inson o‘zida bunday madaniyatga qarshi immunitetni qanday tarbiyalashi va buning uchun nima qilishi zarur? Ming yillik sinovlardan o‘tgan asriy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni yaxshi bilish va amal qilish darkor. Ana shundagina turli g‘oyalar, shubhali “madaniyatlar” ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi.

Darhaqiqat, o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga bir kunlik e’tiborsizlik, talabchanlikning bir lahzalik susayishi ham jiddiy muammolarga olib keladi. Bu saboq, ayniqsa, bugun – yoshlar ongi va qalbini egallash uchun kurash dunyo miqyosida kuchayayotgan bir paytda yanada dolzarb bo‘lib borayotir.

Dunyo ilm-fanida e’tirof etilgan allomalarimiz ham ilm cho‘qqilarini egallabgina qolmay, ma’rifatni keng targ‘ib etgan. Ular mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma’rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bilishgan. Xususan, Abdulla Avloniyning “Ilm insonlarning madori, hayoti,

rahbari, najotidir", degan g'oyasi ma'rifatparvarlik harakatining dasturini tashkil etgan.

Afsuski, bizga yot qarashlarni, millatimizga xos bo'lmagan g'oyalar, ma'naviyatsizlik, axloqsizlikni targ'ib qilib chiqqan ayrim yoshlarimizning beandisha "qiliqlari" ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab e'tirozlarga sabab bo'layotir. Kundalik turmushda, ayniqsa, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qolgan ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi "ma'naviyatsizlik tomoshalari"ga qayta-qayta duch kelyapmiz.

Inson ma'naviy qiyofasining shakllanishi, avvalo, oiladan boshlanadi. Oilada sog'lom muhit barqaror bo'lmas ekan, farzandning yorug' kelajagiga umid bog'lab bo'lmaydi. Ota-ona tarbiyada ibrat bo'la olmagan oilada farzandlar ma'naviyati ham haminqadar bo'lishi shubhasiz. Qadriyatlar qadrlangan oilalardagina tarbiya ustun, ma'naviyat yuksak bo'laveradi.

Inkor etib bo'lmas haqiqat bor: ma'naviyat mudom ma'rifat bilan, ya'ni bilim bilan uyg'un holda rivojlanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", degan hikmatlari bugungi kun uchun ham katta qadr-qiymatga ega.

Uchinchi Renessans to'rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O'z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O'zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta'minoti bo'yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo'ygan. "Ilm izlab Chinga bo'lsa-da, bor", "Sendan harakat — mendan barakat", "Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun" va ko'plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo'ljaliga aylangan edi.

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo'lishini talab etadi. Ammo o'zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni,

ma'naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimiga jiddiy e'tibor qaratishni bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" . Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021 yil.
2. Jumaniyozov R. "Uchinchi renessans davriga zamin". Xabar.uz. 2020 yil.
3. Erkayev A. "Uchinchi renessans – milliy g'oya sifatida". Xalq so'zi online – xs.uz. 2020 yil.
4.Mavlonov Sh. "Go'zal kunlar kelishi kutilmaydi u tomon boriladi". "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021 yil 30 oktabr, 217-son.